

Date: 13<sup>th</sup> February-2025

## ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA TAVAKKUL TALQINI

Shahzodabonu Ismoilova

BuxDU Filologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Alisher Navoiy lirikasida tavakkul talqiniga bag'ishlangan bo'lib, unda shoirning tavakkulga doir baytlari g'oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Navoiyning Allohga bo'lgan ishonch-e'tiqodi, Unga tavakkul qilishi, ko'ngilni poklash, ruhiy-ma'naviy barkamollik bilan bog'liq badiiy mulohazalari shoirning g'azallarida aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, tavakkul, g'oyaviy-badiiy tahlil, ruhiy-ma'naviy barkamollik

### Kirish.

Alisher Navoiy Sharqning ulug' va mumtoz mutafakkiri, Uyg'onish davri dahosidir. Unda benazir shoirlik iste'dodi, til go'zalligi, ifoda mo'jizakorligi, tafakkur teranligi mujassam va bu uning har bir asari, har bir satrida yarq etib porlab turadi. Navoiyning Islom va tasavvufga tayangan dunyoqarashi yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo'ladi. Uning g'oyat teran falsafiy mushohadalari, insoniyatni asrlar davomida qiynab kelgan muammo va dardlar bilan yo'g'rilgan taqdir masalasiga doir qarashlari, inson kamoloti uchun qayg'urishi asarlarining bosh mavzusi bo'lgan. Alisher Navoiy buyuk alloma, axloq muallimidir. Uning asarlari xoh epik, xoh lirik bo'lsin, ulug' adib birinchi navbatda insondagi salbiy xislatlarni ko'zguda aks ettirganday ko'rsatib, najib ezgu xislatlar, fazilatlarini egallashga chorlaydi. Jannatdan quvilgan Odam ato avlodi yana poklanib, asl vatani – Yaratgan oldiga qaytishi kerak. Navoiy mana shu mavqe'dan turib, islom, imon, tavhid, shariat va tariqat masalalarini qalamga oladi. Ulug' shoir ijodida tavakkulga doir satrlar ham ko'p uchraydi.

Tavakkul lug'atda "vakola(vakil qilish)" so'zidan olingan bo'lib, bir ishda boshqaga suyanishni dalolat qiladi. Ya'ni o'sha ishda o'zi ojiz bo'lib qolib, boshqaga e'timod qilish tavakkuldir. Tavakkulni Ibn Rajab "Jome' ul ulum val hikam" kitobida quyidagicha ta'riflaydi: "Tavakkul dunyo va oxirat ishlarida foydani jalb va zararni daf qilish bo'yicha Alloh azza va jallaga sidqidildan suyanishdir. Ishlarning barchasini Unga havola qilishdir. Undan o'zgasi biror narsa bera olmasligiga, man qila olmasligiga, zarar yetkaza olmasligiga va foyda bera olmasligiga bo'lgan iymonni ro'yobga chiqarishdir".

### Asosiy qism.

Hazrat Alisher Navoiy ijodida eng ko'p yoritilgan mavzu adolat va xalq manfaatidir. Shoir asarlarida zamona podshohlariga maslahatlar beradi, ko'ngilni pok tutish, kamtarlik va saxiylik haqida hikmatlar keltiradi. Ezgu maqsadlarni amalga oshirishda hayot qiyinchiliklariga duch kelsa-da, Allohga tavakkul qilib, ixlos va iymon bilan ish tutishni tutishga undaydi. Navoiyning bir qancha devonlarida tavakkulga bag'ishlangan satrlar uchraydi. Buni "Badoyi ul bidoya" devonidagi 8-qit'adan olingan ushbu misralarda ham ko'rishimiz mumkin:

Date: 13<sup>th</sup> February-2025

Tavakkulni ulkim qo'yub xotirig'a,  
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.

Ushbu bayt insonning Allohga bo'lgan ishonchi va undagi xotirjamlikni, kamtarlikni ulug'laydi. Baytni nasriy bayon qiladigan bo'lsak, quyidagi ma'no anglashiladi: kimki tavakkulni qalbiga joylashtirsa, ya'ni o'z ishlarini Allohga ishonib topshirsa, uning ichki tinchligi va xotirjamligi mustahkam bo'ladi. Bunday odam, shoh huzurida xizmat qilayotgandek, kamtarlik va itoatkorlik bilan harakat qiladi. Bu yerda "shoh" ilohiy qudratni anglatadi, "qulluq havosi" esa Allohga to'liq taslim bo'lish holatini tasvirlaydi.

Ey fano ko'yiga ozim uchun tavakkul bo'ldi rost,  
Har necha bu yo'l maxuf o'lsa qadam ur lo taxaf.

"Navodir un-nihoya"dagi 379-g'azalda keltirilgan ushbu baytga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak ham bevosita tavakkul bilan bog'liq ma'noni ilg'aymiz. Insonning foni duniyoga bo'lgan munosabati va tavakkul u uchun rost va to'g'ri yo'l bo'la olishini aytadi. Misradagi notanish so'zlar lug'atini keltirib o'tamiz: Fano - o'tkinchi dunyo; maxuf-xatarli; lo taxaf-qo'rqma. Bular asosida esa misraning nasriy bayonini hosil qilsak, quyidagicha bo'ladi: Fano ( o'tkinchi dunyo) yo'lga kirishim uchun tavakkul mening asosiy tayanchim bo'ldi. Bu yo'lda tavakkul qilish – chin ma'noda haqiqatdir. Garchi bu yo'l qo'rqinchli va xavfli bo'lsa ham, yurakda Allohga bo'lgan ishonch va dadillik bilan qadam tashlash kerak. "Lo taxaf" (qo'rqma) iborasi insonni jasorat va tavakkulga undaydi. Ushbu bayt bilan Navoiy shuni aytmoqchiki, inson hayotidagi qiyinchiliklar va xavf-xatarlarga qaramasdan, Allohga bo'lgan ishonch va tavakkul bilan yo'lda davom etishi kerak.

Devondagi 490-g'azaldan olingan bayt tahliliga qaraymiz:

Emas mone' fano yo'lig'a foqa,  
Kerak rahravg'a zodirah tavakkul.

Baytdagi notanish so'zlar: foqa – kambag'allik, bechoralik; rahrav – yo'l yuruvchi; zodirah – yo'l ozig'i, safar asbobi. Demak, nasriy bayoni quyidagicha: Fano (o'tkinchi dunyo) yo'lga chiqishda hech narsa to'siq emas. Bu yo'lning og'irligi va sinovlariga qaramay, yo'lovchi uchun eng zarur narsa – tavakkulning "yo'l ozig'i" (zodirah) bo'lishidir. Tavakkul bu yo'lda asosiy tayanch va kuch manbayi hisoblanadi. Baytdan shuni anglash mumkinki, inson dunyoning murakkab va sinovli yo'llarida xavf-xatarlardan qo'rqmasdan, yiqilmasdan yurishi uchun, Allohga to'liq ishonch va iymon bilan harakat qilishi lozim.

606-g'azalda keltirilgan baytda esa shoir nido san'atidan foydalanib, shayxga ishq yo'lga tavakkul bilan kirishini va bu yo'lda boshqa hech kimning maslahati kerak bo'lmasligini ta'kidlamoqda:

Tavakkul aylayu kir ishq ko'yiga, ey shayx,  
Ki men qilurda bu azm istixora aylamadim.

"Ey shayx, o'zingni ishqning ko'yiga (ya'ni muhabbat oloviga) tashla va tavakkal qil. Men bu yo'lga kirishda qaror qabul qilganimda istixora qilmaganman (ya'ni istixora qilmasdan bu ishni taqdirga ishonib tanlaganman)." Bu yerda muallif ishq yo'lini tanlashni



Date: 13<sup>th</sup> February-2025

tavakkulga, ya'ni barcha oqibatlarni Allohning irodasiga topshirishga qiyoslamoqda. Bu baytda ishqning ilohiy va murakkab tabiati aks etgan.

Foniy o'l faqr istar ersangkim, erur maqsud mahol,

Yo'lg'a chun qo'yg'ay qadam rahrav tavakkul qilmayin.

“Navodir un-nihoya”dagi 606-g'azaldan olingan ushbu baytda dunyoviy hayot hoy-havaslaridan voz kechish va oliy maqsadga erishish faqatgina ishonch va iymon bilan qilingan tavakkul bilan amalga oshishi ta'kidlanadi. “Agar foniy dunyodan o'tib, chin maqsadingga erishishni istasang, bu juda mushkul va imkonsizday tuyuladi. Shuning uchun bu yo'lga qadam qo'ygan sayyoh(yo'lchi) tavakkal qilmasdan yurishi mumkin emas”. Bu yerda insonning hayot yo'li sabr-toqat va Allohga bo'lgan to'liq tavakkulga asoslangan bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan.

Ne solikkakim, dash etib jilvagoh,

Tavakkulni aylab anga zodi roh.

“Xazoyin ul-maoniy”ning “G'aroyib us-sig'ar” devonidan olingan masnaviydagi ushbu bayt tavakkulning solik uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Nasriy bayoni quyidagicha: “Har qanday solik (yo'lchi), ilohiy go'zallik manzili (jilvagoh) tomon intilib, o'z maqsadiga erishishni istasa, bu yo'lda eng zarur ozug'i tavakkul bo'lishi kerak. Tavakkul yo'lchining ruhiy safarida unga yordam beruvchi asosiy qurol hisoblanadi”. Bayt shuni anglatadiki, ma'naviy yo'lni bosib o'tishda inson Allohga ishonch va taslimiyat bilan harakat qilishi lozim, chunki tavakkul unga ruhiy quvvat va iroda beradi.

Endi esa mutafakkir shoirning “Navodir ush-shabob” devonining 367-g'azalidan olingan parchaga diqqatni qarataylik:

Fano dashtig'a qo'yma to'shasiz yuz,

Vale to'shang kerak bo'lsa tavakkul.

Ushbu baytdan fano (o'tkinchi dunyo) dashtida yuzingizni (o'zingizni) himoyasiz va zaif holda tashlab qo'ymang. Ammo, agar o'z hayotingizni yoki kuchingizni shu yo'lda qurbon qilish zarur bo'lsa, buni tavakkul bilan amalga oshiring, degan ma'noni ilg'ashimiz mumkin. Inson hayotning qiyinchilik va xavf-xatarlariga duch kelganida, zaiflik va umidsizlikka tushmasligi kerak. Aksincha, bu yo'lda jasorat ko'rsatib, Allohga to'liq tavakkul qilishi lozim. Tavakkul insonni og'ir sinovlardan o'tishda qo'llab-quvvatlaydi.

“Badoye ul-vasat”ning 369-g'azalida inson o'zini Allohga to'liq topshirib, dunyoviy tashvishlardan voz kechishi lozimligi haqida aytilgan:

Faqr dashtida desang forig'u ozoda boray,

Kir tavakkul bilayu vahmni barbod etgil.

Bu bayt insonning faqr (kamtarinlik, dunyoviy narsalardan voz kechish) yo'lida tavakkulga bo'lgan ehtiyoj haqidadir. Tavakkul bilan inson barcha qo'rquvlardan xalos bo'lishi aytilgan. “Agar faqr dashtida, ya'ni dunyoviy istaklardan xoli va ozod holda yurishni istasang, bu yo'lga tavakkul bilan qadam qo'y. Ammo bunga erishish uchun avvalo qo'rquv va shubhalarni butunlay yo'q qil, ya'ni vahmdan xalos bo'l”.

586-g'azalida ham tavakkul qilish solik uchun eng yuksak fazilat bo'lishi aytilgan:

Yo'l xatarliqdur, ilik chekma tavakkuldinkim,

Yo'q bu yo'l solikining mundin ulug'roq hunari.



Date: 13<sup>th</sup> February-2025

Nasriy bayoni esa quyidagicha: “Bu yo‘l (ma‘naviy yo‘l yoki hayotning sinovli yo‘li) xavf-xatarlarga to‘la. Shuning uchun, tavakkuldan qo‘l tortma, ya‘ni Allohga bo‘lgan ishonchingni hech qachon so‘ndirma, degan mulohazalar ifodalangan. Chunki bu yo‘lda tavakkuldan kattaroq, undan yuksakroq biror bir fazilat yo‘q. Tavakkul solikning eng buyuk hunari va eng zarur tayanchi hisoblanadi”. Bu baytdan ham shuni anglashimiz mumkinki, tavakkul yo‘limizdagi barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi.

“Favoyid ul-kibar” devonining 8-g‘azaldagi quyidagi bayt esa Allohni ulug‘lash va Unga bo‘lgan tavakkulni ifodalash ruhida yozilgan:

Navoiy og‘zida na‘m al-vakil erur zikring,  
Surug‘ kuni karamingg‘a buyur vakolat anga.

“Navoiy o‘z zikrida Allohning "Na‘m al-Vakil" (eng yaxshi vakil, ya‘ni ishlarni Unga topshiriladigan Zot) ekanligini yod etadi va Uni doim eslaydi. Qiyomat kuni kelganda, o‘zining barcha ishlarini Allohning karamiga va vakolatiga topshiradi, ya‘ni faqat Uning rahm-shafqatiga umid qilish bilan bog‘liq mulohazalar keltirilgan. Baytdan shuni anglash mumkinki, inson hayotda Allohni doimo zikr qilishi va barcha ishlarda Unga tavakkul qilishi kerak. Oxiratda esa faqat Uning rahmati va adolatiga tayanishi lozim. Bu insonning Allohga bo‘lgan cheksiz ishonchi va itoatini aks ettiradi.

#### Xulosa.

Alisher Navoiy she‘riyatida tavakkul tushunchasi chuqur falsafiy va tasavvufiy mazmun kasb etadi. U o‘zining baytlarida tavakkulni inson hayotining ajralmas bir qismi sifatida talqin qiladi. Tavakkul – bu Allohga bo‘lgan to‘liq ishonch, Uning irodasiga bo‘ysunish va barcha ishlarining natijasini Unga topshirishdir. Navoiy tavakkulni solikning yo‘l ozig‘i, ma‘naviy safarining eng zarur qismi sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, Navoiy tavakkulni nafaqat ruhiy holat, balki insonning jismoniy holatida ham qo‘llashi kerak bo‘lgan fazilat sifatida talqin qiladi. U tavakkul orqali inson qo‘rquv va xavotirlardan xalos bo‘lib, maqsadiga jasorat bilan yetishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, Navoiy tavakkulni faqat dunyoviy emas, balki oxirat hayoti bilan ham bog‘laydi. Inson Qiyomat kuni Allohning rahmati va adolatiga umid bog‘lashi lozimligini eslatadi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy she‘riyatida tavakkul ilohiy muhabbat, itoatkorlik va umid bilan boyitilgan oliy qadriyat sifatida gavdalanadi. Uning baytlari insonni Allohga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga, dunyoviy tashvishlardan xalos bo‘lib, ruhiy poklikka erishishga chorlaydi. Navoiy talqinidagi tavakkul – bu insonni Allohga bog‘lovchi ulug‘vor bir ko‘prikdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд. «Фан» нашриёти Тошкент —1987. Бадойиъ ул-бидоя, 631-б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 2-жилд. «Фан» нашриёти Тошкент —1987. Наводир ун-нихоя, 272-352-395-435-б.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 3-жилд. «Фан» нашриёти Тошкент —1987. Хазойин ул-маоний, Фаройиб ус-сиғар, 512-б.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4-жилд. «Фан» нашриёти





Date: 13<sup>th</sup> February-2025

Тошкент —1987.Хазойин ул-маоний, Наводир уш-шабоб, 266-б.

5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 5-жилд. «Фан» нашриёти

Тошкент —1987.Хазойин ул-маоний, Бадое ул-васат, 428-273-б.

6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. -жилд. «Фан» нашриёти

Тошкент —1987.Хазойин ул-маоний, Фавойид ул-кибар,7-б.

7. <https://islom.uz/maqola/1135>.

8. AMONOVA Z., AXROROVA Z. “NASOYIM UL MUHABBAT” DA IMOM G ‘AZZOLIY TALQINI //Alisher Navo'i and 21 st century. – 2024. – Т. 1. – №. 1.

9. Amonova Z. et al. The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – С. 05037.

10. Amonova Z. K. The image of Mansour Hallazh in Mashrab's poetry //image. – 2020. – Т. 1. – С. 26-2020.

11. Amonova Z., Boqiyev A. SAIF ZAFARI BUXORIYNING «DURRUL MAJOLIS» ASARIDA SHAYXLAR TALQINI //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2024. – Т. 10. – №. 61. – С. 202-206.

